

## ORNITONIMLAR SEMANTIKASIDA BIRLAMCHI VA IKKILAMCHI NOMINATSIYA.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8077073>

**M.A.Yigitaliyeva**

*QDPI, o'qituvchi*

### **Annotatsiya.**

*Ushbu maqolada dunyoning lisoniy tasviri mohiyatida dunyoni milliy tarzda tushunish xususiyati aks etadi*

### **Kalit so'zlar.**

*lisoniy, leksik, global, semantik, ideomatik*

Dunyoning lisoniy tasvirning mazmuni va tizimi natijasida bir tomondan, haryoqlamalik (umuminsoniylik ) dan, ikkinchi tomondan, milliy madaniy belgilangan vositalardan shakllanadi. Dunyoning lisoniy tasviri mohiyatida dunyoni milliy tarzda tushunish xususiyati aks etadi. [ 1. 2008: 40]. Dunyoning lisoniy tasviri tarkibida til haryoqlamaligidan tashqari milliy - madaniy komponent mavjud bo'lib, u ma'lum xalqning dunyoni xis qilish xususiyatini dunyoning lisoniy tasvirida mustaxkamlaydi. Dunyoning har bir til tasviri o'z tarkibida haryoqlama va milliy o'ziga xos komponentlarni turlicha nisbati bilan farqlanadi. U yoki bu milliy dunyoning lisoniy tasvirining bunday o'ziga xosligini qiyosiy taxlil natijasida aniqlash mumkin.

Ma'lum bir iqlimda, ma'lum bir xududda yashovchi har bir xalq uni o'rabi to'rgan shart -sharoitga moslashadi. Yashashning turli shart-sharoitlari umum e'tirof etgan qadriyatarning har bir alohida xalqda turlicha uyg'onishiga olib keladi. Shuning uchun "... biz o'ziga xos milliy narsalarni emas, balki barcha odam va madaniyatga umumiyligi bo'lgan narsa va tushunchalarning alohida o'zaro munosabatini payqashimiz zarur" [2.1988: 47] . Umuman har bir xalq uchun hayotiy qadriyatlar bir xil, biroq ularning bo'ysunishi farq qiladi. G.D Gachevning fikricha, xalqning milliy qiyofasi, dunyo tasvirini belgilovchi omillardan biri bo'lib u yashab to'rgan tabiat( geografik sharoit, iqlim hayvonot dunyosi, o'simliklar) hisoblanadi. Xalq bularning har biri natijasida ushbu yashab turgan joyi, moddiy madaniyati, fikrlashi, tiliga aniq javob beruvchi o'ziga xos tarixiy yo'li orqali rivojlangan. Xalqlararo aloqaning mavjud murakkabliklari tufayli turli millat madaniyatlarining ta'siri, o'zaro singishi, o'xshab ketishi minimal darajada bo'lgan

va global natijalarga olib kelmagan. XX-XXI asrlarda telekommunikatsiya, Ommaviy axborot vositalari, internet kabi aloqa vositalarning rivojlanishi va tarqalishi orqali madaniyatni, jumladan tillarni, o'zaro qiyoslash jarayoni jadallahashdi. Bundan kelib chiqib u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etish, ochish aloxida dolzarblik kasb etadi. Turli xalqlarning dunyo tasvirini o'rganish bizni o'rabi to'rgan borliqni o'zimiz qanday ko'rishimiz va qabul qilishimizni yaxshi tushunishga yordam beradi.

Ushbu ishning o'rganish ob'ekti bo'lib ornitonimlar hisoblanadi. Shuning uchun ornitonim ma'noli so'z larni ajratishda asosiy mezon bo'lib semantiklik (ornitonim so'zning yangi ma'nosи, ornitonimning ko'chma ma'nosи ) tanlangan. Asoslanganlik - tilning dastlabki va yasama birliklari orasidagi mazmunli aloqa bo'lib, asoslanganlik yo'q bo'lgan holatda uning mohiyatini dastlabki birlik orqali tushuntirishning iloji bo'lmaydi. "Asoslanganlik "tushunchasi ornitonim larga xos. Oxir- oqibat so'zlar voqelikning predmetlari borasida tushunchalarni anglatadi va shu bilan so'zlar mohiyati anglayotgan fikr predmetlarga murojaat bilan "asoslanadi" [3. 1986: 80]. Meshkov asoslanmaganlik sababini tarkibiy qismlar o'rtasidagi to'g'ridan -to'g'ri mazmunli aloqaning yo'qligi bilan izohlaydi, bu esa ornitonim ma'noli so'zlar tarkibiy qismining belgilangan voqelik predmetlari o'rtasida bunday aloqalar yo'qligining natijasidir. So'zning mohiyati va uning asoslanganligi orasidagi murakkab aloqa ko'pgina mualliflar tomonidan qayd qilinadi. " Qandaydir yasalishda idiomatiklikning turli jixati uning qurilishining asoslanganligini cheklaydi va uni bartaraf qilishi mumkin [ 4.1956: 147]. Asoslangan ornitonim ma'noli so'z gapirliganda leksik (lug'aviy) va tizimiyl idiomaticlikni farqlash zarur.

Shunday qilib, lug'aviy idiomativlik tizimiyl noidiomatiklik bilan birga davom etishi mumkin. " Ko'pgina ornitonim ma'noli so'zlar tabiatan idiomatik sanaladi va aynan tarjima qilinmaydi, ya'ni haqiqatan biz uni tarjima qilmaymiz, balki ularning tilda mavjud bo'lgan tayyor ekvivalentini keltiramiz[ 5.1967: 123].

Til voqelikning ayrim qismlari ishora qilib, ko'proq u bilan tutashadi. Insonning aks ettiradigan voqelik bilan bog'liq atash jarayonida rivojlanishning ushbu bosqichida ma'lum xalq uchun zarur va muhim bo'lgan ishora qilinayotgan predmetda umumlashuv va ajratish ro'y beradi. "Til belgilari bilan belgilash predmetli , hissiy , faoliyatli " bekor qilinish "jarayonlari va natijalari bilan, ya'ni predmetli , aniq xususiyat va munosabatlarini " bekor qilishning " yakunlari atash belgilari bilan qayd qilinadi, odatda, ularning to'g'ridan- to'g'ri ma'nolarida ko'proq yoki kamroq aynan tarzda belgilangan harakat, ob'ektiv voqelik jarayonlari, insonning sub'ektiv xususiyat va holatlarining vazifalari, tashqi shakli,

predmetni qo'llash usuli, vakili, ob'ekti, vositasi, muxiti va boshqa aniq tavsiflari beriladi" [ Yazkovaya nominatsiya (b) 1977: 20] nomlashning markazida - ijtimoiy topshiriq, predmetning vazifasi yotadi.

Qayd qilish joizki, birlamchi nomlash zamonaviy rivojlangan tillarda kam uchraydigan holatdir. " Ikkilamchi nomlash esa tilga kiritilgan tushunchalarga endi qismlarga ajratilgan va til shakllariga olinganlik orqali, shuningdek , nomlanadiganlarning pragmatik (tashqi bog'lanish) intensiyasi orqali, shuningdek, nomlanadiganlarning pragmatik (tashqi bog'lanish )intensiya orqali, voqeliqqa qarashni aks ettiradi. Ikqilamchi nomlanishning ushbu jixati leksikonning idiomatikligini tashkil qilib, ikkilamchi nomlanish jarayonida shakllangan lug'aviy mohiyatlarda tildan tashqari kontinuumning tilga xos o'zgartirilishini yuzaga keltiradi " [ Yazikovaya nominatsiya (a) 1977:221]. Ikkilamchi nomlanishda xususiyati hisoblanadi. Idiomatik so'z yasalishini bilvosita nomlash doirasida ko'rish zarur. Chunki bunday so'zlarning asoslanganligi ularning lug'aviy ma'nosidan tashqaridagi narsa orqali yuzaga kelgan. Ikkilamchi nomlanish holatida to'rtta tarkibiy qism mavjud: voqelik - uning aksining tushunchali- tilli shakli - til shaklining ilgarigi tizmiy -semantik mohiyati - uning ikkilamchi nomlanishi vazifasidagi til shaklidir. "Yangi"so'zda uchinchi tarkibiy qism bo'limganligi sababli qayta anglashda "sakrash" hosil bo'ladi.

Agar alohida olib qaralgan so'zlar insonning predmetli va anglash faoliyati sohasida uning e'tibori to'xtatganligidan dalolat bersa, alohida olingan ornitonim ma'noli so'zlar esa yangi ma'no anglatuvchi holat bilan bog'langan yoki taqqoslanganlikdan dalolat beradi. Mana shu erda turli ko'rinishda umumiy belgilarning mavxumlashuvi hamda ayrim holatlarning o'xshashlik yoki yaqinligini tushunish va ularni taqqoslash mavjud. Ushbu jarayonning turli jixatlari ayniqsa so'z yasalishi sohasida sezilarli bo'lib, bu erda turli so'z yasovchi vositalardan foydalanish nomlanishning sermazmun yo'nalishiga urg'u beradi.

Ornitonim so'zning yangi ma'nolarini yasovchi modellarning farqi, turli tillarda alohida modellarning katta yoki kichik qo'llanilishi dunyoqarashning, ya'ni o'rab turgan voqelikning qabul qilinishi farqi bilan belgilangan degan fikrlar mavjud. Turli tillar boshqa tillardan o'zlashganlarga turli darajada beriluvchandir. Bu jarayon esa semantik so'z yasalishiga bevosita ta'sir qiladi. Xorijiy tillarni rad etish tilning o'z vositalari hisobiga semantik so'z yasash jarayonini faollashtiradi, nomlash usuli sifatida idiomatik so'z yasalishidan foydalanilgan holatdagina turli tillarda voqelikning birgina holati nomlanishining taqqoslanishi namunali sanaladi.

Shunday qilib, so'z o'zlashtirish tub leksika orasidagi chegara belgilanadigan holatlarning mohiyatini taqdim qilish usullarida chuqr tafovutga mos keladi. Tub

so'zning ma'nosini topib bo'lmaydi, uni bilish kerak ( garchi deyarli barcha so'zning ma'nosini etimologik tahlil yordamida aniqlash mumkin); ornitonim ma'noli so'zlarning ma'nosini so'zning tegishli turkumlari yoki so'z yasash modellarini tushunish orqali oson "hisoblab chiqiladi ". Til birligining umumiy ma'nosi uning tashkil qiluvchilari mohiyatidan chiqmasdan asossiz so'z yasalganda bir qaraganda inson tajribasi shartli belgilar bilan izohlanmagan va so'zning ma'nosini bilish kerak holos, biroq shu bilan birga ornitonim ma'noli so'zda so'zning etimologik " xotirasi" tarixiy jixatga ega. Asoslanmagan so'z yasalishi xaqida gap borganda nomlashning ( tub so'zda) negizsiz usulini farqlash kerak, so'zning o'zi - "bilimlarning saqlanish joyida" - uning qanday bilimlar saqlayotganligi xaqida xech nima demasa, etimologik taxlil olib borilgandan keyin ornitorim ma'noli so'z yasalishini dunyoning angilanilgan qandaydir kismiga nisbatan munosabati, so'zdagi ifodalangan bilimi orqali aniqlash mumkin bo'ladi. Ornitonim ma'noli so'zning asoslanganligini qaror toptirish noma'lumlikni ma'lumlik orqali aniqlash, dunyoni eskirgan tasviriga yangi chiziqlar va tafsilotlarni kiritish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu kabi taxlil o'tgan zamonalarda ishlarning mavjud vaziyatining muximligi va qandaydir tartibga keltiruvchi ekanligi anglashga yordam beradi, chunki bunday asoslanmagan ornitonim ma'noli so'zlarda til dunyoning avvalgi tasviri izlarini saqlaydi.

Tasdqiqtichilarning ta'kidlashicha, Kubryakova E.S. [7. 1981: 200] so'z yasalishi eski bilan yangi tajribani birlashtirishga, shuningdek, so'zning ichki shakli bilan qayd qilingan insonning tajribasini saqlashga, qo'shma: so'zning asoslangan ifodasi sababli avloddan avlodga yordam beradi.

Vogelikni ob'ektiv tarzda qismlarga ajratish oson va tillarning o'zaro bir necha taqqoslanuvchi lug'ati materialida o'rganish mahsuldordir. Chunki fikrlash jarayoni xar bir odamda o'zining tuzulishi jixatidan bir xilda davom etadi, biroq ularning aniq natijalari bilan bir-biriga o'xshamaydi, alohida tillarning dunyoni til orqali tasvirlashi: o'z tavsiotlari bilan far qilishi mumkin va bunday xolatni turli tillarning lugaviy tizimi bilan duch keladigan xar qanday odam xam sezishi mumkin. Ona tilidagi so'zlar moxiyatidagi g'oyalar surati so'zlovchi tomonidan o'z-o'zidan anglanishi kerak deay qabul qilinadi. Darxaqiqat, bu turli tillarning egalari anatomiyasining o'ziga xos xususiyatlari bilan emas, balki dunyoning moxiyatlashuvi turli tillarda turlichaligi bilan bog'lik. Bu esa tashqi dunyoning o'sha birgina elementi nomlanishini turli tiplarda taqqoslanishida ayniqsa sezilarlidir:

Umuman qator til birliklari sifatida takrorlanuvchi mazmunlarning o'sha suratlari alovida qiziqish uyg'ootadi. Tasniflar ularning tuzilish mazmunli

tavsiflaridagi o'tishning ayrim jarayonlari taxlilining yirik axamiyati xaqida gapirilishi tasodif emas, negaki tildagi ushbu jarayon vazifalarini aniqlash va ular bilan bog'lik moxiyatlar otishning o'ziga xos namoyishiga yoki, aksincha, u yoki bu tilning umumiyligiga nisbatan to'gri munosabatta ega. Tilning asosli jixatlari boshqa tip dalillari bilan qiyosiy taxlilda fosh buladi. Bir madaniyat va tip doirasidagi odam uchun dunyoni qabul qilish va darajalashda o'zining odatiy uslubi yagona aniq. ruyobga chiqadigan va voqelikka mos tarzda ifodalanadi

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Хайрулина Р.Х. Фразеологическая картина мира: от мировидения к миропониманию. Уфа- 2008.
2. Национальные образы мира в художественной культуре: Материалы Международной научной конференции, посвященной 85-летию со дня рождения литературоведа, философа, культуролога Г.Д. Гачева (1929-2008)
3. Семантические аспекты словосложения английского языка О.Д.Мешков -1986
4. Смирницкий А.И.Лексикология английского языка. /А.И.Смирницкий – М. Московский государственный университет, 1998.-290с
5. Реформатский А. А. Термин как член лексической системы языка // Проблемы структурной лингвистики. М.: Наука, 1967.
6. Уфимцева, А. А. Лексическая номинация (первичная нейтральная) [Текст] / А. А. Уфимцева // Языковая номинация (Виды наименований). – М. : Наука, 1977. – С. 5-85.
7. Кубрякова Е.С. Типы языковых значений. Семантика производного слова. – М,1981 г.
8. Yigitaliyeva M.A..The main concepts and problems of the linguistic and cultural approach Research Focus, Uzbekistan.2022.Vol.1.Issue.4.UIF.8.2.87-89
9. Yigitaliyeva. M.A. Primary and secondary nomination in the semantics of ornithonyms Social Science and Interdisciplinary Research.2022.Vol.11.Issue.09.395-397